



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

	O‘zbek va qozoq tillaridagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida qo‘llanilgan qarindoshlik ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar.	
15	Mohinur USMONOVA, O‘zbek va qozoq xalq ertaklaridagi turg‘un birikmalarning qiyosiy tahlili	541
16	Hayotxon SALAYEVA, Gurlan (Xorazm) shevasida polizchilikka oid xalq leksikasi xususida	544
17	Mufassal PARDAYEVA, Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarining dastlabki variantlarida Ahmad Sardor obrazi	547
18	Серик ТУРПАНАЛИЕВ, Қабдеш жұмаділов прозасындағы төл тілдің көркемдік сипаты	551
19	Amina DEHQONOVA, O‘zbek va nemis ertaklarida xalqona an‘analar	554
20	Dilrabo KOMILOVA, Yangibozor (Xorazm) shevasidagi kiyim-kechak savdo-sotig‘ida ishlatiladigan so‘zlar	558
21	Mohinabonu YUNUSOVA, Toshkent viloyati uyg‘ur shevalarining ayrim leksik xususiyatlari	561
22	Marjona MUSULMONOVA, Boysun tumani bog‘dorchilik leksikasi	565
23	Barchinoy TOSHPO‘LATOVA, Samarqand bolalar folklorining janrlar tarkibi	565
24	Moxlaroyim NAZAROVA, Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida etnografik folklorizmlarning badiiy-estetik talqini	574
25	Fotima KOMILOVA, O‘zbek-turk qarg‘ishlarning mifopoetik talqini	576
26	Shohsanam NOMAZOVA, Dostonlarda obrazlar tizimi masalasi va “Sanamgul” dostonidagi obrazlar	580
27	Muhtarama MAMITOVA, Oila mavzusi bilan bog‘liq ayrim o‘zbek va turk maqollarining tipologik tahlili	583
28	Lobar QULDASHEVA, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning pedagogik ahamiyati	587
29	Sunbula HABIBULLAYEVA, “Shirin va Shakar” dostonida fonetik dialektizmlarning o‘rni (qo‘llanishi)	590
30	Nilufar TURG‘UNOVA, Sirdaryo viloyatidagi Andijon shevalarining fonetik morfologik xususiyatlari	594
31	Sarvinov RAXIMOVA, G‘ijduvon sandiqsozlik so‘zlari	597
32	Aziza ELMIRZAYEVA, Usmon azim lirikasida folklor va badiiy ko‘chim uyg‘unligi	599
33	Diyora NE‘MATOVA, Folklorida til va leksika masalasi: lingvofolkloristik tadqiqotlar tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlar	605
34	Hanifa XODJIYEVA, Mavsumiy marosimlar tasnifi	611
35	Husniddin AZIMJONOV, Tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unligida bilga xoqon obrazi	614
36	Sitora O‘KTAMOVA, Hajv tushunchasining etimologiyasi va falsafiy-estetik mohiyati	617

**FOLKLORDA TIL VA LEKSIKA MASALASI: LINGVOFOLKLORISTIK
TADQIQOTLAR TARIXI, NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR**

**THE ISSUE OF LANGUAGE AND LEXICON IN FOLKLORE: HISTORY AND
THEORETICAL FOUNDATIONS OF LINGUOFOLKLORISTIC RESEARCH**

Diyora NE'MATOVA,

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat
Universiteti Folklorshunoslik va dialektologiya
magistratura mutaxassisligi magistranti
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/AKFA5867*

Annotation. *This scientific article analyzes the linguistic and lexical features of folklore texts from the perspective of linguofolkloristics. It substantiates that the language of folklore, in contrast to everyday spoken language, possesses unique stable formulas, archaic lexemes, dialectal elements, ethnographisms, and poetic patterns. The article provides theoretical information about ethnolinguistics – an interdisciplinary field at the intersection of folkloristics and linguistics. The scientific views and contributions of Russian scholars A. N. Veselovsky, V. Ya. Propp, Yu. M. Lotman, V. N. Toporov, as well as Uzbek scholars Hodi Zarif, Mansur Afzalov, To'ra Mirzayev, Shavkat Rahmatullayev, M. Jumaniyozova, and D. O'rayeva in studying the language of folklore are discussed in detail. The article is intended for researchers, master's students, and doctoral candidates in the field of philology.*

Key words: *folklore language, lexicon, linguofolkloristics, archaic words, dialectal elements, ethnographisms, stable formulas.*

**1. “FOLKLOR” TUSHUNCHASINING KELIB CHIQISHI VA UNING
TILSHUNOSLIK BILAN ALOQASI**

Folklor (inglizcha folk – “xalq”, lore – “bilim”, “donolik”) termini xalq tomonidan yaratilgan va avloddan avlodga o'tib kelayotgan madaniy merosni anglatadi. Ushbu atama fanga birinchi bo'lib 1846-yilda Uilyam Toms (William Thoms) tomonidan kiritilgan. To'g'ridan-to'g'ri tarjimasi “xalq donoligi” yoki “xalq bilimlari” degan ma'noni anglatadi va u xalq ma'naviy madaniyatining turli ko'rinishlarini ifodalaydi [Thoms W. 1846: 3-4].

Kengroq tushunchada folklor nafaqat og'zaki ijod janrlarini, balki xalq san'ati, e'tiqod, marosimlar, hunarmandchilik hamda til kabi madaniy meros elementlarini ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, folklor va tilshunoslik o'rtasidagi bog'liqlik alohida ahamiyatga egadir. Zero, folklor namunalari – dostonlar, maqollar, ertaklar, topishmoqlar, qo'shiqlar – xalq tilining jonli ifodasi sanaladi. Ular orqali tilning tarixiy rivojlanishi, dialektal xususiyatlari, leksik qatlamlari, frazeologik boyligi, shuningdek, so'zlashuv nutqining o'ziga xos shakllari namoyon bo'ladi.

O'zbek ilmiy muhitida dastlab “og'zaki adabiyoti” yoki “og'iz adabiyoti” atamalari ishlatilgan. “Folklor” termini esa XX asrning 30-yillaridan boshlab keng qo'llanila boshladi. Xususan, 1939-yilda Hodi Zarif tomonidan tuzilgan “O'zbek folklori” xrestomatiyasining nashr etilishi ushbu terminning o'zbek folklorshunosligida mustahkam qaror topishiga zamin yaratdi [Zarif H.1939: 12-13].

Folklor – bu murakkab va ko'p qatlamli, sintetik xususiyatga ega bo'lgan madaniy hodisa bo'lib, u xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi hamda estetik qarashlarini o'zida mujassam etadi. Folklor asarlari ko'pincha bir necha san'at turlarining uyg'unlashuvi natijasida yuzaga keladi. Unda og'zaki badiiy ijod, musiqa elementlari, sahnaviy yoki teatrlashtirilgan ko'rinishlar bir butun tizim sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, xalq qo'shiqlari, marosim qo'shiqlari, dostonlar yoki

xalq o'yinlari nafaqat matn, balki ohang, ijro uslubi va sahnaviy harakat bilan ham bog'liq bo'ladi. Shu sababli folklor adabiy hodisa emas, balki ko'p yo'nalishli san'at shakli sifatida qaraladi [Mirzayev 1979: 27-29].

2. FOLKLOR VA TILSHUNOSLIKNING TUTASHGAN SOHALARI: ETNOLINGVISTIKA

Folklor va tilshunoslikning kesishgan nuqtasida etnolingvistika fan yo'nalishi shakllangan bo'lib, u til va xalq madaniyati, dunyoqarashi, an'ana-odatlarini o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tadqiq etadi. Etnolingvistikaning asosiy vazifasi – tilda aks etgan xalqning dunyo haqidagi bilimlari, tasniflari, baholashlari va madaniy kodlarini ochib berishdan iborat.

Folklor matnlari tilshunoslar uchun qimmatli manba bo'lib, ular orqali tilning fonetik, morfologik va sintaktik xususiyatlari, shuningdek, so'zlarning etimologik ildizlari aniqlanadi. Masalan, o'zbek xalq dostonlarida uchraydigan qadimgi so'zlar ("zambarak", "yayov", "qopqon", "dayra" va boshqalar) aynan folklor matnlari tufayli saqlanib qolgan va til tarixini o'rganuvchi tadqiqotchilar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi [Rahmatullayev 2000: 56].

Rus olimi Nikita Tolstoy (N. I. Tolstoy) ta'rifiga ko'ra: "Etnolingvistika – bu til va xalq madaniyati, xalqning ruhiy dunyosi va ijodi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadigan fan sohasi" (tarjima – N. T.) [Толстой 1990: 15]. Aynan shu nuqtai nazardan folklor til va madaniyatning eng sof va to'g'ridan-to'g'ri ifodasidir.

3. FOLKLOR TILINING UMUMIY XUSUSIYATLARI

Folklor tili – bu xalq og'zaki ijodi namunalarida qo'llaniladigan, avloddan avlodga o'tib, sayqal topib kelgan, o'zining barqaror formulalari, obrazli ifodalari va ritmik-sintaktik tuzilishiga ega bo'lgan maxsus lisoniy tizimdir.

Folklor tilining asosiy belgilaridan biri – soddalik va xalqona ifodalardir. Xalq og'zaki ijodida qo'llaniladigan so'zlar odatda oddiy, tushunarli va esda qoladigan holatda bo'ladi. Bu holat asarlarning og'zaki tarzda yod olinishini osonlashtiradi. Masalan, ertaklardagi "bir bor ekan, bir yo'q ekan", dostonlardagi "yetti kunda yetti yo'l bosdi" kabi iboralar hech qanday murakkab talqinni talab qilmaydi, ularni har qanday yoshdagi tinglovchi tushunadi [Propp 1928:88-90].

Shu bilan birga folklorga xos matnlarda takroriy iboralar, an'anaviy so'z birikmalari va epik qoliplar keng tarzda uchraydi. Bunday til birliklari doston, ertak va lirik qo'shiqlarda badiiy ta'sirchanlikni kuchaytiradi hamda matnning ritmik tuzilishini ta'minlaydi. Masalan, "Alpomish" dostonidagi "Qoshlari qora yaydek", "Ko'zlari qora qirg'ovuldek", "Yuzi oydan yorug'" kabi iboralar asar davomida qayta-qayta takrorlanib, qahramon obrazining yaxlitligini ta'minlaydi.

Ingliz folklorshunosi Sesil Sharp (Cecil Sharp) o'z tadqiqotlarida folklor tilining yana bir muhim xususiyatini qayd etgan: "Folklor tili – bu eski, ko'pincha arxaik so'zlar va qoliplardan tashkil topgan, biroq aynan shuning uchun u juda ta'sirli va go'zal" (tarjima – S. Sh.) [Sharp 1907:112].

4. RUS FOLKLORSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIGIDA FOLKLOR TILINING O'RGANILISHI

Folklorda til masalasini o'rganish dastlab XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ilmiy muomalaga kiritila boshlandi. Bu davr olimlari va tadqiqotchilari folklor matnlaridagi til birliklarini oddiy so'zlashuv tilidan farqli ravishda o'ziga xos estetik va funksional xususiyatga ega ekanligini qayd etganlar.

Aleksandr Nikolayevich Veselovskiy (1838–1906) rus folklorshunosligi va tilshunosligida ushbu masalalarning nazariy asoschilaridan biri sifatida tilga olinadi. Olim o'zining "Tarixiy poetika" nazariyasida folklor tilidagi obrazlar, motivlar va ularning ifoda vositalarining tarixiy taraqqiyotini tahlil qilgan [Veselovskiy 1989: 45-48]. Veselovskiyning fikricha: "Folklor tili – bu xalq ongida avloddan avlodga o'tib, sayqallanib kelgan ramziy va obrazli ifodalar tizimidir" (tarjima – A. V.) [Веселовский 1913: 112].

Uning “psixologik parallelizm” haqidagi ta’limoti folklor matnlaridagi tabiat va inson hayoti o‘rtasidagi bog‘liqlikning til vositalari orqali ifodalanishini ochib berishga xizmat qilgan. Veselovskiyning ta’kidlashicha, folklor tilida tabiat hodisalari (quyosh chiqishi, yomg‘ir yog‘ishi, daryo oqimi va boshqalar) inson hayoti (tug‘ilish, o‘lim, sevgi, kurash) bilan parallellikda tasvirlanadi. Masalan, “Quyosh botdi – yigit ketdi” kabi parallelizmlar folklor tilining asosiy qurilish tamoyillaridan biridir [Веселовский 1913: 128].

Vladimir Yakovlevich Propp (1895–1970) esa folklor tilining struktural xususiyatlarini o‘rgangan eng buyuk olimlardan biridir. Uning “Морфология сказки” (“Ertak morfologiyasi”) nomli fundamental asarida folklor matnining tarkibiy elementlari aniqlanib, ularning tildagi ifodasi barqaror formulalar va shakllardan iborat ekanligi ko‘rsatilgan [Propp 1969: 33-35]. Propp o‘z asarida shunday yozadi: “Ertaklar tilida qat’iy belgilangan va deyarli o‘zgarmas formulalar mavjud. Masalan, ‘bir bor ekan, bir yo‘q ekan’ formulasi yoki ‘ular to‘y qilib, baxtli hayot kechirdilar’ iborasi deyarli barcha ertaklarda uchraydi” (tarjima – V. P.) [Propp 1969: 87].

Olimning struktural yondashuvi keyingi davr tadqiqotchilariga folklor leksikasining turg‘un birliklarini o‘rganishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan. Proppning yana bir muhim asari – “Ertakning tarixiy ildizlari” (Исторические корни волшебной сказки) – folklor tilidagi ko‘plab so‘z va iboralarning kelib chiqishini qadimgi marosimlar, initiatsiya (yetuklikka o‘tish marosimi) va mifologik tasavvurlar bilan bog‘lab bergan [Propp 1946: 56-59].

XX asrning ikkinchi yarmida Yuriy Mixaylovich Lotman (1922–1993), Vyacheslav Vsevolodovich Ivanov (1929–2017) va Vladimir Nikolayevich Toporov (1928–2005) kabi olimlar folklor tilini semiotik nuqtai nazardan tadqiq etdilar. Lotman folklor matnini “ikkilamchi modellashtiruvchi tizim” deb talqin qilib, undagi har bir leksik birlik ma’lum bir madaniy kod va mifologik ma’noni ifodalashini asosladi. Lotmanning so‘zlariga ko‘ra: “Folklor tili – bu tabiiy til asosida qurilgan, ammo o‘zining qat’iy qoidalari va ramziy kodlariga ega bo‘lgan ikkilamchi sistema” (tarjima – Yu. L.) [Лотман 1970: 67].

V. N. Toporov slavyan mifologiyasi va folkloridagi asosiy tushunchalarning (makon, zamon, taqdir, baxt kabi) leksik-semantik tahlilini amalga oshirib, folklor tilidagi har bir so‘z faqat o‘zining bevosita ma’nosida emas, balki mifopoetik kontekstda qo‘shimcha ramziy ma’nolarga ega ekanligini ko‘rsatdi [Топоров 1995: 94-95].

Boris Andreyevich Uspenskiy (1937-yilda tug‘ilgan) esa folklor matnlarida nuqtai nazar (point of view) muammosini til vositalari orqali ifodalanish masalasini o‘rganib, bu borada muhim nazariy xulosalarga kelgan. Uspenskiyning fikricha, folklor matnida hikoya qilish nuqtai nazari (kimdan? qanday masofadan? qanday baholash bilan?) tilning muayyan grammatik va leksik vositalari orqali ifodalanadi [Успенский 1970: 45-47].

5. O‘ZBEKISTON HUDUDIDA FOLKLOR TILINI O‘RGANISH TARIXI

O‘zbekiston hududida folklor tilini o‘rganish ishlari, ayniqsa, XX asrning 30-40-yillaridan tobora avj oldi. Bu jarayonda Hodi Zarif (1897–1971)ning xalq og‘zaki ijodiga mansub matnlar tilining tahlili uchun qilgan xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Hodi Zarif nafaqat folklor namunalari to‘plab nashr ettirgan, balki ularning til xususiyatlariga, xalq shevalari bilan bog‘liq tomonlariga ham katta e’tibor qaratgan [Zarif 1939: 3-4].

Hodi Zarif o‘zining “O‘zbek folklori xrestomatiyasi” (1939) asarida quyidagilarni qayd etgan: “Folklor matnlarini o‘rganishda ularning til xususiyatlarini, ayniqsa, dialektal elementlarini hisobga olmaslik mumkin emas. Har bir hududning o‘ziga xos talaffuzi va leksikasi folklor matniga o‘ziga xos rang bag‘ishlaydi” [Zarif 1939: 23].

Mansur Afzalov (1912–1981) o‘zining tadqiqot ishlarida, asosan, dostonlar bilan shug‘ullangan va o‘zbek xalq dostonlari tilining o‘ziga xos xususiyatlarini, undagi arxaik leksika va dialektal elementlarni tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Afzalovning eng katta xizmatlaridan biri – dostonlar tilining bugungi kunga qadar jonli xalq tili bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanganligini ko‘rsatib berganligidir. Uning ta’kidlashicha: “Dostonlar tili – bu



xalqning tirik so‘zlashuv tilining badiiy jihatdan sayqallangan, ammo o‘z asl xususiyatlarini yo‘qotmagan shaklidir” [Afzalov 1965: 45].

To‘ra Mirzayev (1932–2016) bugungi zamonaviy o‘zbek folklorshunosligining buyuk namoyandasi sifatida xalq baxshilarining epik repertuari, doston matnlarining barqarorligi va ijro holatidagi til o‘zgarishlari masalalarini o‘z tadqiqotlarida bayon etgan. Mirzayevning fikricha: “Har bir baxshi o‘ziga xos til xususiyatlariga ega. Ba’zilar arxaik so‘zlarni ko‘proq qo‘llasa, boshqalar zamonaviy xalq tiliga yaqinroq ijro qiladi” [Mirzayev 1974: 67]. Uning boshchiligidagi nashr etilgan akademik nashrlar folklor matnlarining ilmiy jihatdan o‘rganishda, farqli variantlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shavkat Rahmatullayev (1926–2006) o‘zbek tilshunosligining yirik vakillaridan biri bo‘lib, uning etimologik tadqiqotlari folklor matnlarida uchraydigan qadimgi so‘zlarning kelib chiqishi, ularning asardagi ma’nosi, xalq hayoti, urf-odatlar, madaniyati bilan bog‘liqligi va ma’no taraqqiyotini tushinishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Rahmatullayevning quyidagi fikri bu borada muhimdir: “Folklor matnlari – bu til tarixini o‘rganish uchun eng qimmatli manba. Ular o‘zida qadimgi so‘z va shakllarni saqlagan” [Rahmatullayev 2000: 12]. Uning “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” asari bu borada fundamental ahamiyatga molikdir.

So‘nggi yillarda M. Jumaniyozova, D. O‘rayeva kabi olimlar tomonidan xalq og‘zaki ijodi matnlarining til xususiyatlari yo‘nalishida maxsus tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu tadqiqotlar, asosan, dostonlar tili leksikasi, folklor matnlaridagi etnografizmlar, antroponimlar va toponimlarning lingvistik tahliliga qaratilgan [Jumaniyozova 2015: 34; O‘rayeva 2018: 56-58].

6. LINGVOFOLKLORISTIKA YO‘NALISHI VA UNING O‘ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI

Bugungi kunda xalq og‘zaki ijodi namunalari matnlarining tili va leksikasi masalasi turli xil yo‘nalishlar tomonidan o‘rganilmoqda. Xususan, areal lingvistika, kognitiv lingvistika, korpus lingvistika va boshqa shu kabi zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari tadqiqot obyekti sifatida folklor materiallaridan foydalanmoqda.

Bundan tashqari, lingvofolkloristika yo‘nalishi mavjud bo‘lib, unda folklorning til xususiyatlari tadqiq etiladi. Lingvofolkloristikaning asosiy vazifasi – xalq og‘zaki ijodining yaxlit bir tizim sifatidagi lingvistik xususiyatlarini, uning barcha darajalarini (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik) kompleks tarzda tahlil qilishdir [Хроленко 1994: 5-7].

O‘rta Osiyo va O‘zbekiston hududida lingvofolkloristik tadqiqotlar XX asrning 60-70-yillarida sezilarli darajada rivoj topdi. Bu borada Sh. Shoabdurahmonov, S. Tursunov, A. Ishayev kabi olimlar tomonidan o‘zbek xalq dostonlari tilining leksik va fonetik xususiyatlariga oid bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Mazkur ishlarda dostonlar tilining o‘ziga xos qirralari ilk bor tizimli ravishda o‘rganila boshlandi. Shu bilan birga xalq qo‘shiqlari, topishmoqlar, ertaklar va laparlarning poetik tuzilishiga bag‘ishlangan tadqiqotlar maydonga keldi [Shoabdurahmonov 1972: 89-91].

Garchi bu tadqiqotlarda “lingvofolkloristika” atamasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilmagan bo‘lsa-da, bu holat ularni lingvofolkloristik yo‘nalishdagi ishlar qatoriga kiritmaslikka asos bo‘la olmaydi. Zero, lingvofolkloristikaning asosiy vazifalaridan biri xalq og‘zaki ijodining yaxlit bir tizim sifatidagi lingvistik xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Shu ma’noda, mazkur ilmiy ishlar ushbu yo‘nalishning dastlabki bosqichi sifatida qaraladi [Tursunov 1975: 112].

M. Yakubbekova o‘zbek tilshunosligida xalq og‘zaki ijodini lingvofolkloristika obyekti sifatida etirof etgan olimlardan biridir. U xalq qo‘shiqlari materiali orqali ushbu soha haqidagi dastlabki nazariy mulohazalarini bildirgan. Yakubbekovanning ta’kidlashicha: “Xalq qo‘shiqlari tili – bu xalqning his-tuyg‘ulari, kechinmalari va dunyoqarashining eng to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodasidir. Shu sababli ularni o‘rganish tilshunoslikning alohida yo‘nalishi sifatida shakllanishi lozim” [Yakubbekova 1985: 15].

7. ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: AREAL, KOGNITIV VA KORPUS LINGVISTIKASI

Bugungi kunda folklor tilini o‘rganishda yangi istiqbolli yo‘nalishlar shakllanmoqda. Areal lingvistika folklor matnlarining hududiy tarqalishi, bir syujetning turli dialektlarda qanday leksik farqlarga ega ekanligini o‘rganadi. Masalan, “Zumrad va Qimmat” syujetining xorazm, qashqadaryo va farg‘ona variantlaridagi leksik tafovutlar areal tadqiqotlar uchun qimmatli material beradi.

Kognitiv lingvistika folklor matnlarida aks etgan xalqning dunyo haqidagi bilimlari, tasniflari, konseptual tizimini tahlil qiladi. Misol uchun, o‘zbek ertaklarida “yaxshilik” va “yomonlik” konseptlari qanday leksik vositalar bilan ifodalanishi kognitiv tadqiqotlarning asosiy masalalaridan biridir.

Korpus lingvistika esa katta hajmdagi folklor matnlarini kompyuter yordamida qayta ishlash, so‘z chastotasini aniqlash, kontekstlarni tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, 500 ta o‘zbek xalq ertagi matnidagi iborat korpus tuzilsa, unda eng ko‘p qo‘llanilgan so‘zlar, eng ko‘p takrorlangan formulalar va ularning kontekstlari avtomatik ravishda aniqlanadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot ishini yakunlar ekanman, folklor tili va leksikasi masalasi nafaqat tilshunoslik, balki folklorshunoslik, etnolingvistika va semiotika kabi fanlarning tutashgan nuqtasida joylashgan murakkab ilmiy hodisa ekanligini angladim.

Birinchidan, folklor tili oddiy so‘zlashuv tilidan barqaror formulalar, arxaik so‘zlar, dialektal elementlar va etnografizmlarning ko‘pligi bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar folklor matnlarining avloddan avlodga o‘zgarishsiz yetib kelishini ta‘minlagan.

Ikkinchidan, rus olimlari A. N. Veselovskiy, V. Ya. Propp, Yu. M. Lotman va o‘zbek olimlari Hodi Zarif, Mansur Afzalov, To‘ra Mirzayev, Shavkat Rahmatullayevlarning tadqiqotlari folklor tilini o‘rganishda mustahkam nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan. Ularning har biri bu sohaga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shgan.

Uchinchidan, zamonaviy tilshunoslikning areal, kognitiv va korpus lingvistikasi kabi yo‘nalishlari folklor tilini o‘rganishda yangi imkoniyatlar ochmoqda. Kelgusida sun‘iy intellekt texnologiyalari yordamida bu soha yanada rivojlanadi deb umid qilaman.

To‘rtinchidan, folklor tili – bu shunchaki so‘zlar majmui emas, balki xalqning ming yillik tarixi, urf-odatlar va dunyoqarashining jonli guvohidir. Uni o‘rganish orqali biz o‘tmishdoshlarimizning tafakkur tarzi, qadriyatlar va estetik didini chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Ushbu tadqiqot men uchun katta ilmiy maktab bo‘ldi va kelgusida folklor tilining ramziy leksikasi, turli hududlardagi doston variantlarining qiyosiy tahlili kabi yo‘nalishlarda izlanishlarni davom ettirish niyatidaman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Afzalov M. O‘zbek xalq dostonlari tili // O‘zbek tili va adabiyoti masalalari. – Toshkent, 1965. – B. 44-49.
2. Jumaniyozova M. O‘zbek dostonlari tilidagi etnografizmlar. – Toshkent: Fan, 2015. – 142 b.
3. Mirzayev T. O‘zbek baxshilari epik repertuari. – Toshkent: Fan, 1974. – 224 b.
4. Mirzayev T. O‘zbek xalq dostonlari. – Toshkent: Fan, 1979. – 198 b.
5. O‘rayeva D. Ertaklar tilidagi arxaik leksika. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2018. – 128 b.
6. Propp V. Ya. Istoricheskie korni volshebnoy skazki. – L.: LGU, 1946. – 340 s.
7. Propp V. Ya. Morfologiya skazki. – L.: Academia, 1928. – 152 s.
8. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (so‘zboshi). – Toshkent: Universitet, 2000. – B. 3-15.
9. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – Toshkent: Universitet, 2000. – 784 b.

10. Sharp C. English Folk-Song: Some Conclusions. – London: Simpkin & Co, 1907. – 157 p.
11. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dostonlari leksikasi // O'zbek tili va adabiyoti. – 1972. – № 4. – B. 47-52.
12. Thoms W. Folk-Lore // The Athenaeum. – London, 1846. – № 982. – P. 862-863.
13. Tursunov S. Folklor tili tadqiqotlarining ayrim masalalari // O'zbek tili va adabiyoti. – 1975. – № 2. – B. 33-39.
14. Veselovskiy A. N. Istoricheskaya poetika. – M.: Vysshaya shkola, 1989. – 406 s.
15. Yakubbekova M. O'zbek xalq qo'shiqlari tili. – Toshkent: Fan, 1985.
16. Zarif H. O'zbek folklori xrestomatiyasi. – Toshkent: O'zdavnashr, 1939. – 312 b.
17. Веселовский А. Н. Психологический параллелизм и его формы в отражении поэтического стиля // Собрание сочинений. – СПб., 1913. – Т. 5. – С. 112-148.
18. Лотман Ю. М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. – 384 с.
19. Толстой Н. И. Этнолингвистика // Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С. 15-16.
20. Топоров В. Н. Миф. Ритуал. Символ. Образ: Исследования в области мифопоэтического. – М.: Прогресс, 1995. – 624 с.
21. Успенский Б. А. Поэтика композиции. – М.: Искусство, 1970. – 224 с.
22. Хроленко А. Т. Основы лингвофольклористики. – Курск: КГПУ, 1994. – 86 с.